

## **KONSTITUTSIYA – HUQUQ VA ERKINLIKLERIMIZ KAFOLATI**

Sadikova Yorkinoy Salijonovna

SamDU Juridik fakulteti

Davlat huquqiy fanlar kafedrasini mudiri, yuridik fanlar nomzodi

Norqulov Bektoshjon Normamat o‘g‘li

103-guruhi talabasi

Norqulovbektosh8@gmail.com

### **Annotatsiya:**

Konstitutsiya har bir mamlakatdagi qonunlar va tamoyillar to’plami sifatida xizmat qilishga yordam beradi. Inson huquqlarini ta’minlash yangi tashkil topgan har qanday mustaqil davlatning ustuvor maqsadi hamda siyosatning asosiy qadriyatlaridan biriga aylanishi isbot talab etmaydigan holatdir. Konstitutsiya bu bizning huquq va erkinliklerimiz haqida so’zlovchi va barcha burchlarimizni aks ettiruvchi qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu maqolada Milliy qomusimizning hayotimizda tutgan o’rni va ahamiyati haqida batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** O’zbekiston, Konstitutsiya, qonun, inson, huquq, dahlsizlik, ijro etuvchi hokimiyat, ma’muriyat, demokratiya.

Konstitutsiya – xalqimizning siyosiy – huquqiy tafakkurli mahsuli, asriy qadriyatlarimizning beqiyos timsolidir.

Shavkat Mirziyoyev

Konstitutsiyani davlat hokimiyati fuqarolar qo’liga beradi. U davlat hokimiyatini cheklaydi va baholash, o’lchash tizimini o’rnatadi. Bu milliy Konstitutsiya bo’lib, uchta ma’muriy tuzilmani, xususan, qonun chiqaruvchi, ma’muriy va sud hokimiyatini anglatadi. U qonunchilik jarayonlarini sekinlashtiradigan va shaxsiy huquqlarning haqoratli buzilishini cheklaydigan nazorat va muvozanatni o’z ichiga olishi mumkin. Konstitutsiya markaziy hokimiyatni kuchaytirish zaruratidan kelib chiqqan holda ishlangan. Inqilobi urushdagagi Konfederatsiya moddalari shtatlar o’rtasida ittifoq tuzgan bo’lsa-da, u ko’p vakolatlarni shtatlarga qoldirdi. Konstitutsiya, shuningdek, hokimiyatni milliy va shtat hukumatlar o’rtasida taqsimlaydi. Ushbu muhim tartibga solish federalizm deb ataladi, bu markaziy hukumat va shtatlar o’rtasidagi umumiy hokimiyat asosidir. Bundan tashqari, Konstitutsiya shaxs va erkinliklarini hukumat tomonidan suiste’mol qilinishidan himoya qiladi. Konstitutsiya oddiygina „Davlatni qanday boshqarishi, vakolatlar qanday taqsimlanishi, nazorat qilinishi va fuqarolar qanday huquqlarga ega bo’lishi to’g’risida ko’rsatmalar beruvchiquidalar va tamoyillar to’plami” deb ta’riflash mumkin. Odatda, konstitutsiya bitta

hujjat ko'rinishida mavjud. Kengroq qilib aytganda, konstitutsiya haqiqatda hokimiyatning vakolatlari va o'zaro ta'siri bo'yicha chegaralarni belgilaydi. U hukmron hukumatdagi tegishli organlarga tegishli vazifalarni yuklaydi va ularga davlat fuqarosiga qoidalar va qoidalarni qanday yuklash bo'yicha rahbarlik qiladi. Bugun Konstitutsiya to'g'risida, uning ma'noma'mazmuni va ustuvor tamoyillari haqida so'z yuritar ekanman. Asosiy qomusimizda birinchi navbatda shaxs manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustun etib belgilangani, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliv qadriyat sifatida muhrlab qo'yilgan. Mustaqil demokratik yo'ldan dadil yo'ldan odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, Bosh Qomusimizning II bob 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va Qonunlar bilan himoya qilinishi belgilangan. Shuningdek, so'ngi yillarda Konstitutsiyamizning qator moddalarida belgilab qo'yilgan barcha sohalarda bo'lgani kabi sud-huquq hamda, inson huquqlarini ta'minlash sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki inson huquqlarini ta'minlash va kafolatlarining samarali mexanizmini yaratmasdan turib, hattoki iqtisodiy o'sishga yoki jamiyat siyosiy hayotida erkinlikka erishishning ham also iloji yo'q. Barcha narsa borib, jamiyat tarkibiy qismining eng kichik va shu bilan birga eng muhim elementi sanalgan shaxs erkinligi omiliga borib taqaladi. Shaxs-jamiyat-davlat mantiqiy tizimi inson omiliga yetarli e'tibor bermasdan turib, jamiyatning ravnaqi va erkinligi, davlatning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashningimkonni yo'qligidan dalolat bermoqda. Ya'ni huquqiy islohotlarning boshlang'ich nuqtasi – bu davlatning demokratik rivojlanishi darajasining o'ziga xos ko'rsatkichi sanaladi.

Inson huquqlari – konstitutsiyaning muhim tarkibiy qismidir. Konstitutsiyaga muvofiq inson va davlat munosabatlarida ustuvorlik shaxsga beriladi. Konstitutsiya qoidalarni tahlil etib, undan inson huquqlari mazmun va mohiyatini belgilab beruvchi quyidagi muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Avvalambor inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlatning alohida majburiyati ekanligiga urg'u berib o'tish lozim. Ikkinchidan, asosiy qonunda o'z tasdig'ini topgan inson huquqlari va erkinliklari ro'yxati asosida xalqaro huquqiy hujjatlar qoidalariiga muvofiq keladi. Ushbu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, inson huquqlari sohasida milliy qonunchilikka nisbatan xalqaro huquq normalarining ustuvorligi belgilab qo'yilgan. Uchinchidan, Konstitutsiya qoidalari tabiiy huquq nazariyasi o'z ifodasini topdi. Har bir inson tug'ilganidan muayyan huquqlarga ega bo'lish qoidasi mustahkamlab qo'yildi. To'rtinchidan, barchaning qonun oldida tengligi va eng muhimi Konstitutsiyada fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasiga ega bo'lishlari qoidasi o'z tasdig'ini topdi. Beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlariga daxl qilmasligi qoidasi mustahkamlab qo'yildi.

Inson huquqlari oliy ne'matdir. Ular ichida salmoqli o'rin kasb etuvchi huquqlar tizimi- bu shaxsiy huquqlardir. Shaxsiy huquqlarning ehromida esa insonning yashash huquqi joy olgan. Huquqiy islohotlar va inson huquqlarini ta'minlashda, samaradorlikka erishishda shaxsning erkinligi omili muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 25-moddasida insonning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi belgilab berilgan. Insonning ma'lum bir noqonuniy xatti-harakati uchun uning erkinligini cheklash, boshqacha aytganda qamoqqa oilsh keng tarqalgan jazo turlaridanbiri hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq shaxsni qamoqqa olishda prokuror ruxsati huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlangan davlatlar amaliyoti ushbu vakolatni sud organlariga taqdim etish huquqiy islohotlarning muhim yutuqlardan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Sud ijtimoiy nizolar, buzilgan huquqlarini tiklash, turli xil jinoyat- protsessual, fuqarolik-protcessual nizolarni hal etuvchi organ sifatida, o'rni huquqiy islohotlarni amalga oshirish davomida ortib boradi. Sudning inson huquqlarini taminlashdagi vakolatlari doirasini kengaytirish nafaqat bevosita odil sudlovni amalga oshirish bosqichida, balki sudgacha bo'lган jarayonga, ya'ni dastlabki surishtiruv, tergov organlari faoliyatiga taaluqli bo'lishi lozim. Xususan, tintuv o'tkazish, ayblanuvchini hibsga olish yoki vaqtincha lavozimidan bo'shatish kabi protsessual qonunchiligida jinoyat odil sudlovini amalga oshiruvchi mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari ustidan taqdim etilayotgan shikoyatlarni sud tartibida ko'rib chiqish qiladi. Shaxsning huquqlari chegarasini kengaytirib borish olib borilayotgan huquqiy, xususan, jinoyat-huquqiy islohotlarning muhim jihatlaridan biri sifatida belgilanadi.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi tufayli mamlakatimizda istiqlol yillarida ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat an'analarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr- oqibat, bag'rikenglik hamjihatlilik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldor tuyg'ular yuragimizning tub-tubidan o'rinn oldi. Bugungi kunda davlatimiz xalqaro huquq normalariga mos, chet mamlakatlarning ilg'or huquqiy tajribasiga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga va xalqimizning urf odatlari, siyosiy va huquqiy tajribalariga asoslangan milliy huquq tizimiga ega bo'ldi. Eng muhimi Konstitutsiyamiz yurtimizda barpo etilayotgan insonparvar, adolatli va demokratik huquqiy davlat va uning huquqiy tizimini nazariy hamda huquqiy asoslarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda „O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi matni e'lon qilindi. Shunga binoan qonun loyihasining III bo'lim, XIV bob, 79-moddasida „Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroy etishini rag'batlantiradi....” deb yoshlarga e'tiborni yanada kuchayayotganini ko'rib turibmiz. Bularning hammasi biz yoshlarga bo'lган e'tibordan darak beradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan „Taraqqiyot strategiyasi“ dagi 7 ta yo’nalish va 100 ta maqsad doirasida belgilangan bosh maqsadning asosiy g’oyasi – inson qadrini taminlashdir. Ushbu voqelik va maqsad yoshlar bilan bevosita aloqador, desak, mubolag’ a bo’lmaydi. Chunki Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo’nalishi bo’yicha hozirgi kunga qadar 26 ta konsepsiya va bir qator dasturlar qabul qilingan bo’lsa, kelgusida Taraqqiyot strategiyasi doirasida 13 ta kodeks, 12 ta qonun, ya’ni har bir ustuvor yo’nalishda zarur qonun hujjatlari qabul qilinishi ko’zda tutilgan bo’lib, bularning barchasi inson omili bo’lgan huquq va erkinliklarimiz bilan chambarchas bog’liq.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki: So’nggi yillarda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini tubdan isloh qilish, jumladan, inson huquqlarini ta’minlash, bizga berilayotgan huquq va erkinliklarni yanada kengaytirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, hozirgi kunda qomusimiz bo’lgan konstitutsiyaga ham o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilib,

Konstitutsianing yangi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Shu bilan birga, yangi O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi doirasida ilgari surilgan keng ko’lamli vazifalar, xususan, adolatli davlat barpo etish, inson huquq va manfaatlarini, uning qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash kabi muhim maqsadlarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu fikrlardan xulosa shuki, biz yoshlarga bo’lgan e’tibor va berilayitgan imkoniyatlardan samarali foydalanish har tomonlama qonun tomonidan ham ma’naviy tomonidan ham muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev qo’llab- quvvatlamoqdalar bunga biz yoshlar befarq qaramasligimiz lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi O’zbekiston NMIU 2021 17-19 bet.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tog’risida”gi Qonuni loyihasi matni. 18-20 bet.
3. 2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining xalqiga qilgan murojaatnoma matni 33-34 bet.
5. „Xalq so’zi” gazetasi 22.03.2023-yil 2-3 bet.
6. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g’oyamizning poydevoridir. „Tasvir” nashriyot uyi. 34-76 bet.
7. Toshkent- 2021

## **FOYDALANILGAN ELEKTRON RESURSLAR**

1. <http://www.xabar.uz/>
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
4. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
5. [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)